



Certain aspects of sentencing for crimes for which a plea agreement was concluded in the criminal law of the Republic of Uzbekistan

Kunduz ROZIMOVA¹, Dilbar SHARIPOVA²

Tashkent State University of Law

ARTICLE INFO

Article history:

Received January 2023
Received in revised form
15 January 2023
Accepted 25 February 2023
Available online
15 March 2023

Keywords:

Law on amendments and additions to the Criminal and Criminal Procedure Codes of the Republic of Uzbekistan, plea agreement, serious and extremely serious crimes, petition, medical or coercive measures

ABSTRACT

In recent years, one of the things done to democratize and liberalize the judicial system in our country was the addition of Article 572 to the Criminal Code. The conclusion of an agreement on the admission of guilt and the imposition of punishment in cases where an agreement has been concluded are reflected in the criminal legislation of many countries. The article focuses on the order of sentencing for crimes for which a plea agreement was concluded and its special features.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol4-iss2/S-pp275-279>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqida aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv tuzilgan jinoyatlar bo'yicha jazo tayinlashning ayrim jihatlari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslariga o'zgartirish va

So'nggi yillarda mamlakatimizda sud-huquq tizimini demokratlashtirish va liberallashtirish borasida qilingan ishlardan biri Jinoyat kodeksiga 572-moddaning qo'shilishi bo'ldi. Aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv tuzilgan ishlar bo'yicha

¹ Doctor of Philosophy in Legal Sciences (PhD), Associate Professor, Department of Criminal Law, Criminology and Combating Corruption, Tashkent State University of Law. E-mail: q.rozimova@gmail.ru

² Student, Criminal Justice faculty, Tashkent State University of Law. E-mail: dilbarsharipova013@gmail.com

qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qonun, aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar, iltimosnoma, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari.

jazo tayinlashning huquqiy asosi Jinoyat kodeksi va Jinoyat protsessual kodeksi bilan tartibga solinadi. Aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv tuzilish va kelishuv tuzilgan ishlar bo'yicha jazo tayinlash ko'pgina mamlakatlarning jinoyat qonunchiligida o'z ifodasini topgan. Maqolada aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv tuzilgan jinoyatlar bo'yicha jazo tayinlashning tartibiga hamda uning alohida xususiyatlariga to'xtalib o'tilgan.

Некоторые аспекты назначения наказания за преступления, по которым заключено соглашение о признании вины, в уголовном законодательстве Республики Узбекистан

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Закон о внесении изменений и дополнений в Уголовный и Уголовно-процессуальный кодексы Республики Узбекистан, мировое соглашение, тяжкие и особо тяжкие преступления, ходатайство, меры медицинского или принудительного характера.

Одним из мероприятий по демократизации и либерализации судебной системы в нашей стране за последние годы стало внесение в Уголовный кодекс статьи 572. Заключение соглашения о признании вины и назначении наказания в случаях, когда соглашение заключено, нашли отражение в уголовном законодательстве многих стран. В статье акцентируется внимание на порядке назначения наказания за преступления, по которым заключено соглашение о признании вины, и его особенностях.

So'nggi yillarda O'zbekistonda sud-huquq tizimini demokratlashtirish va erkinlashtirish, sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlash, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Ushbu fikrning tasdig'i sifatida shuni aytishimiz mumkinki, 2021-yil 18-fevralda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun bilan mamlakatimizda jinoyat ishlari bo'yicha aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv joriy qilindi. Mazkur Qonun bilan Jinoyat kodeksiga 572-modda "Aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv tuzilgan jinoyatlar bo'yicha jazo tayinlash" to'g'risida qo'shimcha kiritildi. Unga ko'ra: "Aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv tuzilgan jinoyatlar bo'yicha tayinlanadigan jazoning muddati yoki miqdori Jinoyat Kodeksi Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan eng ko'p jazoning yarmidan oshmasligi kerak".

Jinoyat protsessual kodeksi 5861-moddasiga muvofiq, "Aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv- bu, jinoyat ishini yuritishda o'ziga nisbatan qo'yilgan gumonga, ayblovga rozi bo'lgan, jinoyatning ochilishiga faol ko'maklashgan hamda keltirilgan zararni bartaraf etgan gumon qilinuvchining yoki ayblanuvchining iltimosnomasiga asosan nazorat qiluvchi prokuror bilan ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, uncha og'ir bo'lmagan va og'ir jinoyatlar bo'yicha tuziladigan kelishuvdir".

M.H. Rustambayev fikriga ko'ra, aybga iqrорlik to'g'risidagi kelishuv ayrim shartlar mavjud bo'lgan taqdirdagina tuziladi. Bular:

1) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi o'z harakatlarini mohiyatini hamda o'zi bergan iltimosnomasining oqibatini anglab yetganida;

2) iltimosnoma ixtiyoriy ravishda berilganligi yoki ishda ishtirok etayotgan himoyachi bilan maslahatlashuvlar natijasida berilgan bo'lsa;

3) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi surishtiruv yoki tergov organlari tomonidan qo'yilgan ayblovni, mavjud dalillarni, shuningdek, yetkazilgan zararni miqdorini inkor etmasa hamda uni to'liq bartaraf etgan bo'lsa;

N.Nabiyev fikriga ko'ra, agar ish bo'yicha gumon qilinuvchi, ayblanuvchi sifatida bir necha shaxs jalb etilgan bo'lsa, aybga iqrорlik to'g'risidagi kelishuv har bir gumon qilinuvchi, ayblanuvchi bilan alohida-alohida tuziladi.

E'tiborli jihati shundaki, ayblanuvchi, gumonlanuvchi aybga iqrорlik to'g'risidagi kelishuvni tuzish haqidagi iltimosnomani surishtiruv va tergovning istalgan bosqichida berishi mumkin. Jinoyat qonunchiligiga muvofiq, aybga iqrорlik to'g'risidagi kelishuvni 4 toifa shaxslar tomonidan imzolangan bo'lishi lozim. Ular:

ishni yuritayotgan prokuror tomonidan;

gumon qilinuvchi, ayblanuvchi;

gumon qilinuvchi, ayblanuvchining himoyachisi;

gumon qilinuvchi, ayblanuvchining qonuniy vakili tomonidan (agar ishda qatnashayotgan bo'lsa);

Kelishuv imzolanishidan oldin gumonlanuvchi, ayblanuvchi kelishuvni imzolash masalasini hamda uning oqibatlarini himoyachisi bilan holi qolgan holda, maxfiy ravishda gaplashib olish huquqiga ega.

E.Turg'unboyev fikriga ko'ra, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi aybga iqrорlik to'g'risida kelishuv tuzish haqidagi iltimosnomani surishtiruvning va dastlabki tergovning istalgan bosqichida berishi mumkin.

Iltimosnomada gumon qilinuvchi, ayblanuvchi surishtiruv yoki dastlabki tergovda qo'yilgan ayblovni tan olishi, dalillarni inkor qilmasligi, jinoyatni tergov qilishga ko'maklashishi, jinoyat natijasida olingan mol-mulkning topilishi uchun qaysi harakatlarni amalga oshirish shartligini, jinoyatga aloqador boshqa axborotni taqdim etishga doir majburiyatlarini hamda jinoyat oqibatida yetkazilgan zarar bartaraf etilganligini ko'rsatib o'tishi kerak. Kelishuv tuzish haqidagi iltimosnomada gumon qilinuvchi, ayblanuvchi tomonidan bajariladigan va jinoyatni fosh etish uchun ko'maklashadigan muayyan harakatlar ham ko'rsatilishi mumkin.

Qolaversa, JPK 5863-moddasi aybga iqrорlik to'g'risida kelishuv tuzish haqidagi iltimosnomaning prokuror tomonidan ko'rib chiqilishi belgilangan. Aybga iqrорlik to'g'risida kelishuv tuzish haqidagi iltimosnoma jinoyat ishini yuritayotgan surishtiruvchiga, tergovchiga taqdim etiladi. Surishtiruvchi, tergovchi aybga iqrорlik to'g'risida kelishuv tuzish to'g'risidagi iltimosnomani olgan paytdan e'tiboran yigirma to'rt soat ichida jinoyat ishi materiallarini kelishuv tuzish masalasini hal qilish uchun prokurorga yuboradi. Prokuror kelishuv tuzish to'g'risidagi iltimosnomani u kelib tushgan paytdan e'tiboran yetmish ikki soat ichida surishtiruvchi yoki tergovchi hamda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, uning himoyachisi ishtirokida ko'rib chiqadi va ushbu Kodeksning 5861-moddasida ko'rsatilgan talablarga rioya etilganligini tekshiradi. Zarur

hollarda, prokuror jabrlanuvchini yoki fuqaroviy da'vogarni ham kelishuv tuzish masalasini ko'rib chiqish uchun jalb qiladi.

Jinoyat protsessual kodeksining 5861-moddasining 2-qismida aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv tuzilmaydigan holatlar ko'rsatib o'tilgan. Unga ko'ra:

JPKning 61-bobida belgilangan tartibda tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash uchun asoslar mavjud bo'lganda;

Shaxs tomonidan bir nechta jinoyatlar sodir etilgan bo'lib, ulardan loaqal bittasi JK 572-moddada belgilangan talablarga to'g'ri kelmasa ;

Aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuvga doir ishlar umumiy tartibda, jinoyat ishi kelishuvi bilan birga sudga kelib tushganidan e'tiboran sud 1 oydan kechiktirmay ko'rib chiqishi shart.

Jinoyat protsessual kodeksi 5868-moddasiga asosan, sud aybga iqrorlik to'g'risidagi prokuror qarorini ko'rib chiqib, quyidagi qarorlardan birini chiqaradi:

Kelishuvni tasdiqlash to'g'risida;

Kelishuvni tasdiqlashni rad etish va ishni prokurorga qayta yuborish haqida;

Aybga iqrorlik to'g'risida kelishuv tuzilgan ishlar bo'yicha jazo tayinlashda xorijiy davlatlar tajribasini o'rganadigan bo'lsak, Rossiya Federatsiyasida hamda O'rta Osiyo mamlakatlarida bu norma deyarli bir xil tarzda tartibga solingan. Rossiya Federatsiyasi qonunchiligida aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv "protsessual kelishuv" deb yuritiladi hamda Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksining 314-moddasiga binoan, ayblanuvchi davlat yoki prokuror tomonidan o'ziga qo'yilgan ayblovga roziligini bildiradi hamda ariza berishi mumkin .

Ammo Yevropa davlatlarida bu norma bir muncha farqli ravishda tartibga solingan. Buni Buyuk Britaniya qonunchiligida ko'rib chiqishimiz mumkin. Aybga iqrorlik Buyuk Britaniya jinoyat protsessining an'anaviy va muhim elementi hisoblanadi. So'nggi yillarda Buyuk Britaniya sudlarida ayblanuvchilarning aybiga iqror bo'lish foizi kamayishi kuzatilayotgan bo'lsada, ayblanuvchilarning ko'pchiligi buni davom ettirmoqda va odatda aybni oldindan tan olish britan sudyalarning jazo muddatini 20-30 foizga qisqartirishga olib kelmoqda .

Yuqoridagilarga asoslangan holda shuni xulosa qilishimiz mumkinki, odilona va asosli jazo tayinlash hamda jinoyatga, jinoyat sodir etgan shaxsga adolatli baho bera olish orqaligina jazodan ko'zlangan maqsadlarga erishishimiz mumkin. Shu ma'noda, jinoyat qonunchiligimizdagi yangi o'zgarish jazoni liberallashtirish sohasida yangi muhim qadam hamda jahon satandartlariga mos o'zgarish bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi(www.lex.uz)
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi (www.lex.uz)
3. Rustambayev M.X. Jinoyat huquqi. Darslik-Toshkent: TDYU nashriyoti, 2019-B 546-547
4. www.Aniq.uz Aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv haqida nimalarni bilamiz?
5. E.Turg'unboyev-Aybga iqroqlik to'g'risida kelishuv tuzilgan ishlar bo'yicha jazo tayinlashning alohida jihatlari
6. Jinoyat protsessual kodeksi.Toshkent: Adolat nashriyoti, 2021-B 684
7. Jinoyat protsessual kodeksi.Toshkent: Adolat nashriyoti, 2021-B 684

8. Rustambayev M.X. Jinoyat kodeksiga sharh. Toshkent: TDYU nashriyoti, 2021-B 547
9. Jinoyat protsessual kodeksi. Toshkent: Adolat nashriyoti, 2021-B 684
10. Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksi 2021-yil 18-dekabrdagi 174-FZ-son
11. Buyuk Britaniya-Jinoyat va protsessual tergov to'g'risidagi qonunning 49-bo'limi